

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK: 338.46:6Π2.15.7**

**USMANALIYEVA MUKARRAM DAVID QIZI**

**MEHMONXONALARNI BOSHQARISHDA AXBOROT TIZIMLARINING  
QO‘LLANILISHI VA ISTIQBOLLARI**

**71010101 –Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish  
mutaxassisligi bo‘yicha**

6

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:**  
**i.f.n., dots. Abidova D.**

**TOSHKENT-2023**

Magistrilik dissertasiya ishi “ \_\_\_\_\_ ”  
kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.


\_\_\_\_\_ -sonli bayonnoma“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 й.

Kafedra mudiri: I.Axmedov

  
imzo

08.05.2023  
sana

Ilmiy rahbar: D.Abidova

  
imzo

\_\_\_\_\_  
sana

Talaba: M.Usmanaliyeva

\_\_\_\_\_  
imzo

\_\_\_\_\_  
sana

Dissertasiya Magistratura bo'limida 2021 yil “ \_\_\_\_\_ ”  
№ \_\_\_\_\_ raqamli bilan ro'yhatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Turizm sohasida axborot texnologiyalari bevosita biznesni rivojlantirishga va zamonaviy ish o'rinlarini yaratishga asos solmoqda. Turizm sohasini boshqaruvida esa axborot texnologiyalari - bu apparatli va dasturiy vositalar yordamida turistik biznesda optimal natijalarga erishish maqsadida har xil shakllardagi boshlang'ich ma'lumotlarning qayta ishlash orqali ishonchli axborotga ega bo'lish va ular asosida qaror qabul qilish majmuasidir.<sup>1</sup> Bu yerda turistik biznes ko'p tarmoqlarni qamrab oladi, masalan, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va hattoki insonlarning psixologik jihatlari.<sup>2</sup>

Turizmda mahsulotlarni va xizmatlarni taqdim etish shakli keskin o'zgarishi bevosita axborot texnologiyalari bilan bog'liq bo'lib, unda mijozlar to'g'ridan-to'g'ri turistik xizmatlarini yetkazib beruvchilar bilan ulangan bo'ladi. Natijada global tarmoq kanallari orqali amalga oshiriladigan biznesda ilgari mavjud bo'lgan o'rta bo'g'in siqib chiqarilmoqda. Internet orqali turizm sohasidagi kompaniyalar o'z xizmatlarini taqdim qilish hajmi kundan-kun oshib bormoqda, bunda mehmonxonalar, aviakompaniyalar, turoperatorlar bu borada juda katta imkoniyatlarga ega bo'lishmoqda. Bundan tashqari, ushbu kompaniyalarda hujjat yuritish tizimi ham tubdan o'zgarimoqda.

**Kalit so'zlar:** *turizm, axborot dasturlari, internet, xorijiy sayyoh, on-layn bronlash, turistik xizmatlar.*

---

<sup>1</sup> <http://e-library.namdu.uz>

<sup>2</sup> <http://e-library.namdu.uz>

## SUMMARY

In the field of Tourism, Information Technology is laying the foundation for direct business development and the creation of a modern workplace. And in the management of the tourism industry, information technology is a complex of obtaining reliable information and making decisions on their basis through the processing of initial information in various forms in order to achieve optimal results in the tourist business using hardware and software tools. The tourist business here covers many branches, for example, economic, political, social and even psychological aspects of humanity. A sharp change in the form of providing products and services in tourism is directly related to Information Technology, in which customers will be directly connected with suppliers of tourist services. As a result, the middle joint, which was previously present in the business carried out through global network channels, is squeezed out. Companies in the field of tourism through the Internet increase the volume of their services day by day, in which hotels, airlines, tour operators have a huge opportunity in this regard. In addition, the system of documentation in these companies is also radically changing.

**Key words:** *Tourism, Information Programs, internet, foreign tourist, on-line booking, tourist services.*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yhati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yhati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
<b>KIRISH.....</b>	<b>7</b>
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	7
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	10
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	11
Tadqiqot ilmiy yangiligi.....	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>13</b>
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
1.2. Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	18
1.3. Mavzuga oid ababiyotlar sharhi.....	23
<b>II BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>26</b>
2.1. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	26
2.2. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	26
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi..	27
2.4 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	30
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>33</b>
3.1. Axborot texnologiyalarning turlari va ularning tahlili.....	33
3.2. Axborot texnologiyalarning mehmonxonalarda qo‘llanilishi.....	39
3.3. Mehmonxonalar ish faoliyatida axborot texnologiyalarning samaradorligi.....	44
3.4 Mehmonxonada qoshidagi restoran va omborxonada hisobini avtomatlashtirish istiqbollari.....	54
<b>XULOSA.....</b>	<b>61</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>64</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>67</b>

## KIRISH

### Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Turizm iqtisodiy sohalar ichida daromad keltirishi bo'yicha yetakchi sohalardan biridir. Mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Yurtimizga tashrif buyurgan turist eng awalo uning tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, tabiat resurslari bilan Internet orqali tanishib oladi. Internet o'zining ko'p qirraligi, axborot resurslari manbailigi, daromadliligi va boshqa jihatlari bilan turistlarning mamlakat haqidagi bilimlarini shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.<sup>3</sup> Ushbu tadqiqot ishidan talabalar turizm sohasida Internet xizmatlarini sifatli tashkil etish va samarali foydalanish haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Mehmonxonalarda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari nomerlarni bronlash, doimiy mijozlar, mehmonlarning talablari va ular to'lashi lozim bo'lgan haq haqidagi ma'lumotlarni kiritish, saqlash va zarur holda tez qidirib topishga yordam beradi. Muayyan sanada tashrif buyurgan mehmonlar ro'yxatini kompyuter xotirasidan topish hech qanday muammo tug'dirmaydi. Bronlash stoli fayllari avtomatlashtirilgan axborot tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular ushbu ish uchun mas'ul bo'lgan ma'mur yordamchisiga bronlashtirilmagan nomerlar miqdori va ularning tafsilotlari: xonalari soni, derazadan ko'rinadigan manzara, narxi va h.k. haqida axborot olish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi mehmonxona faoliyatiga joriy yetilgunga qadar rezervlash bilan shug'ullanuvchi xodim bunday axborotni yig'ishi va undan foydalanishi ancha og'ir ish bo'lib, juda ko'p vaqtni olar edi. Shuning uchun ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samarali qo'llash mamlakatni texnologik va iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qilmoqda.<sup>4</sup>

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni qayta ishlashning mustaqil tizimi sifatida ham, funktsiyaviy tarkibiy qism sifatida ham ishlaydi va yanada yirik tizim

---

<sup>3</sup> [http://el.tfi.uz/images/Kasbiy\\_pedagogika](http://el.tfi.uz/images/Kasbiy_pedagogika)

<sup>4</sup> [http://arm.sies.uz/w\\_p-content/uploads/](http://arm.sies.uz/w_p-content/uploads/)